

Xalqaro moliya institutlari mablag'lari ishtirokida 2020 yilda amalga oshirilgan investitsiya loyihalari to'g'risida MA'LUMOT

Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan **Xalqaro moliya institutlari mablag'lari ishtirokida** umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish investitsiya loyihalari doirasida 2020 yilda jami 94,6 million AQSh dollari miqdoridagi mablag'lar o'zlashtirildi. Shu jumladan, quyidagi loyihalar doirasida qurilish-montaj ishlari amalga oshirilgan:

- "A-380 "G'uzar-Buxoro-Nukus-Beyneu" avtomobil yo'lining 228-315 km qismini (87 km) rekonstruksiya qilish" loyihasi – 11,7 mln. AQSh doll. (Osiyo taraqqiyot banki qarz mablag'i);

- "Toshkent, Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlaridagi mahalliy avtomobil yo'llarini rivojlantirish" loyihasi- 48,5 mln. AQSh doll. (Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi qarz mablag'i (Jahon banki guruhi));

- "A373" "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining 173-176 km qismlarini rekonstruksiya qilish" loyihasi - 8,8 mln. AQSh doll. (Osiyo taraqqiyot banki qarz mablag'i, A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining 116-190 km qismini rekonstruksiya qilish loyihasidan iqtisod qilingan mablag'lar doirasida amalga oshirilmoqda);

- "M39 "Almata-Bishkek-Toshkent-Shaxrisabz-Termiz" avtomobil yo'lining 1395-1400 km va 1410-1426 km (21 km) qismlarini rekonstruksiya qilish" loyihasi - 9,5 mln. AQSh doll. (Islom taraqqiyot banki qarz mablag'i, M39 "Almata-Bishkek-Toshkent-Shaxrisabz-Termiz" avtomobil yo'lining 1330-1395 km, 1400-1410 km va 1426-1451 km (jami 100 km) qismini rekonstruksiya qilish ob'ekti doirasida iqtisod qilingan mablag'lar hisobiga mazkur ob'ekt qurilishi belgilab berilgan. Ushbu ob'ekt Surxondaryo viloyatining Boysun, Sherobod va Angor tumanlaridan o'tadi;

- "4R87" "G'uzor-Chim-Ko'kdala" avtomobil yo'lining 38-73 km qismini (35 km)

rekonstruksiya qilish" loyihasi - 16,1 mln. AQSh doll. (Saudiya taraqqiyot jamg'armasi va Quvayt Arab itqisodiy taraqqiyot fondi qarz mablag'i).